Additionally, AI-driven chatbots can handle routine inquiries, providing immediate responses to students and parents. These chatbots can assist with questions about homework, class schedules, and general school policies, thereby enhancing communication within educational institutions. By reducing the administrative load, AI enables educators to devote more time to developing creative and effective teaching strategies, ultimately leading to a more enriching educational experience for students.

4. Data-Driven Insights

AI enables educators to harness vast amounts of data for informed decision-making. Learning analytics, powered by AI, can identify patterns in student performance and engagement, providing valuable insights into teaching effectiveness and curriculum design. This data can guide curriculum development, inform intervention strategies, and facilitate early identification of at-risk students. For example, predictive analytics can signal when a student is likely to struggle based on historical performance, allowing for timely interventions.

Institutions that leverage these insights are better equipped to implement targeted support and improve overall student outcomes. By continuously monitoring student progress and adapting instructional methods accordingly, educators can foster a more responsive and supportive learning environment. Moreover, the integration of AI in

data analysis can help identify systemic issues within educational institutions, enabling leaders to make informed decisions that enhance equity and access for all students.

Benefits of AI in Education

Enhanced Engagement

AI-driven tools can create interactive and immersive learning experiences that captivate students' attention. For instance, gamified learning platforms utilize AI to adapt challenges based on student performance, keeping learners engaged and motivated. This level of interactivity can lead to increased retention and enthusiasm for learning, as students are more likely to persist through challenges when they feel supported and engaged.

Furthermore, AI can facilitate collaborative learning environments where students work together on projects and problem-solving tasks. By utilizing AI to group students based on complementary skills or learning styles, educators can enhance peer-to-peer learning and foster a sense of community in the classroom.

Scalability and Accessibility

AI technologies have the potential to scale educational resources, making high-quality learning experiences accessible to a broader audience. Online platforms powered by AI can reach students in remote or underserved areas, providing equitable access to educational opportunities. This democratization of education can help address long-standing disparities in access to quality instruction and resources.

Moreover, AI can support multilingual education by providing real-time translation services and culturally relevant content. This feature is particularly beneficial in diverse classrooms, where students may speak different languages and come from various cultural backgrounds. By catering to diverse needs, AI can create inclusive learning environments that celebrate and support diversity.

Continuous Improvement

AI systems can learn from user interactions, allowing for continuous improvement of educational content and methodologies. By analyzing user feedback and performance data, these systems can evolve, ensuring that they remain effective and relevant. This iterative process not only enhances the learning experience but also enables educators to stay informed about the latest trends and best practices in teaching and learning.

Additionally, the ability to aggregate and analyze data from various educational contexts can inform broader educational research and policy decisions. Insights gained from AI-driven analytics can contribute to a deeper understanding of effective teaching strategies, helping to shape the future of education on a larger scale.

Challenges and Considerations

Despite the numerous benefits of AI in education, several challenges must be addressed to ensure successful implementation:

Equity and Access

The digital divide remains a pressing concern, as unequal access to technology can exacerbate existing educational disparities. Ensuring that all students have access to the necessary technology and resources is critical for the equitable implementation of AI in education. Policymakers and educators must work collaboratively to bridge this gap by providing the necessary infrastructure and support for under-resourced schools and communities.

Additionally, ongoing professional development is essential to empower educators to effectively integrate AI into their teaching practices. Training programs should be designed to enhance teachers 'digital literacy and familiarize them with the capabilities of AI tools, enabling them to leverage technology to support student learning.

Data Privacy and Security

The collection and analysis of student data raise significant privacy and security concerns. Educational institutions must implement robust data protection measures and adhere to ethical guidelines to safeguard student information. This includes ensuring compliance with regulations such as the Family Educational Rights and Privacy Act (FERPA) and the General Data Protection Regulation (GDPR).

Moreover, transparency in data usage is crucial. Educators, students, and parents must be informed about how data is collected, stored, and utilized. By fostering a culture of trust and accountability, educational institutions can alleviate concerns regarding data privacy and encourage more widespread adoption of AI technologies.

Teacher Training and Support

As AI technologies are integrated into classrooms, educators must be adequately

trained to utilize these tools effectively. Professional development programs should focus on equipping teachers with the skills to harness AI while maintaining a human-centered approach to teaching. This includes fostering an understanding of how AI can complement traditional teaching methods, rather than replace them.

Additionally, ongoing support is essential to help teachers navigate the challenges associated with implementing AI in their classrooms. Collaborative networks and mentorship programs can provide educators with opportunities to share experiences, resources, and best practices, ultimately enhancing their confidence and competence in using AI technologies.

Conclusion

AI has the potential to revolutionize education by personalizing learning experiences, providing intelligent tutoring, streamlining administrative processes, and offering data-driven insights. However, to fully realize these benefits, stakeholders must address the associated challenges, including equity, privacy, and teacher support. As we move forward, a collaborative approach that includes educators, policymakers, and technology developers will be essential in shaping a future where AI enhances educational practices and outcomes for all learners.

The journey toward integrating AI in education is ongoing, and it will require adaptability and a commitment to continuous improvement. By embracing these technologies thoughtfully and ethically, we can create learning environments that empower all students to thrive in an increasingly complex and interconnected world.

REFERENCES

1. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. Pearson.

2. Woolf, B. P. (2010). *Building Intelligent Interactive Tutors: Student-centered Strategies for Revolutionizing E-learning*. Morgan Kaufmann.

3. Luckin, R. (2017). *Towards Artificial Intelligence for Learning: A Theoretical Framework*. ResearchGate.

4. Heffernan, N. T.,

"АФҒОНИСТОН ИСЛОМ АМИРЛИГИ" ҲАРБИЙ СИЁСАТИНИНГ МИНТАҚАВИЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ

Мустақил изланувчи: **Мирзаев Гайратжон Муйдинжонович**
Электрон почта манзили: geantleboy@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада замонавий босқичда "Афғонистон Ислом Амирлиги" ҳарбий сиёсати минтақа хавфсизлиги кесимида трансчегаравий терроризм, ташқи кучларнинг аралашуви ва кучлар мувознатининг бузилиши каби омиллар асосида таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Афғонистон Ислом Амирлиги, минтақавий хавфсизлик, терроризм, геосиёсат, халқаро ҳамкорлик, ташқи сиёсат, ҳарбий стратегия, халқаро террористик ташкилотлар.

INFLUENCE OF MILITARY POLICY OF "THE ISLAMIC EMIRATE OF AFGHANISTAN" ON REGIONAL SECURITY

ABSTRACT

This article analyzes the military policy of the "Islamic Emirate of Afghanistan" at the modern stage based on such factors as cross-border terrorism, foreign actors and disruption of the balance of power in the area of regional security.

Key words: Islamic Emirate of Afghanistan, regional security, terrorism, geopolitics, international cooperation, foreign policy, military strategy, international terrorist organizations.

КИРИШ

АҚШнинг собиқ "Афғонистон Ислом Республикаси" дан ўз ҳарбийларини олиб чиқиши билан Афғонистон ҳукуматини эгаллаган "Толибон ҳаракати" мамлакатда ҳукумат сифатида тинчлик ва барқарорликни сақлаш, "Афғонистон Ислом Амирлиги" (АИА) манфаатлари йўлида олиб бораётган ҳарбий сиёсати минтақа хавфсизлигига таъсир қилувчи асосий омиллардан бирига айланди. Афғонистоннинг Марказий Осиё, Эрон, Покистон ва Хитой билан чегарадош стратегик муҳим минтақада жойлашганлиги унинг геосиёсий мавқеи ҳамда

минтақавий хавфсизлик динамикасида муҳим ўйинчилардан бирига айлантиради.

Замонавий босқичда, Афғонистон ҳарбий сиёсатини таҳлил қилиш, мамлкатда сақланиб қолаётган хавфсизликнинг мураккаб динамикасини тушунишга, минтақада юзага келиши мумкин бўлган эҳтимолий таҳдидларни баҳолаш ва зарур стратегияларни ишлаб чиқишга имкон беради.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ушбу мавзу юзасидан хорижий ва мамлакатимиз тадқиқотчилари амалга оширган илмий ишларни қуйидаги гуруҳларга ажратиб ўрганилди:

Биринчи гуруҳга, И.И.Бобокулов, И.А.Зимин[1], С.Мирзоев, С. Милс[2], Ж.Гарамоне[3], D.Давис[4], П.Винтоур[5] каби изланувчиларни 2021 йил 15 август "Толибон" ҳокимиятга келгунча бўлган даврда, яъни Афғонистон Ислом Республикаси даврида тадқиқ этилган ишларни киритиш мумкин.

Мазкур даврларга ажратиш "Толибон ҳаракати" ҳарбий сиёсатининг минтақа хавфсизлигига таъсири баҳолашда собиқ республика давридаги террористик ташкилот ва "Афғонистон Ислом Амирлиги" ташкил қилингандан сўнг ўз қуролли кучларини тузган "қуролли мухолифат" салоҳиятини қиёслаш имконини беради ва бу икки даврнинг минтақа хавфсизлигига таъсири тубдан фарқланади.

Жумладан, биринчи гуруҳга доир С.Мирзоевнинг тадқиқот ишида Геосиёсий ракурсда Афғонистон инқирозининг Марказий Осиё минтақавий хавфсизлигига таъсирини таҳлил этилган[6].

Шунингдек, Осиё-Тинч океани хавфсизлик тадқиқотлари маркази (Asia-Pacific Center for Security Studies-APCSS) АҚШ Мудофаа вазирлиги институти директори Kerry Lynn Nankivell ўз мақолаларидан бирида Афғонистон ҳукуматига куч тузилмаларини мустаҳкамлаш, нафақат мамлакат учун балки минтақа хавфсизлик учун ҳам асосий восита бўлиши мумкинлигини таъкидлайди[7].

[1] И.А.Зимин: Этапы становления регулярной Армии: невыученные уроки Афганистана Т: 2022

[2] Claire Mills. The withdrawal of military forces from Afghanistan and its implications for peace. T:2021

[3] Jim Garamone. Afghan Forces Have Capacity to Fight, Defend Country. T:2021

[4] Daniel L. Davis. How military leaders have let us down. T:2021

[5] Patrick Wintour. A tale of two armies: why Afghan forces proved no match for the Taliban. This article is more than 2 years old. T:2021

[6] Мирзоев С.Т. Афганский кризис и его влияние на региональную безопасность в Центральной Азии: геополитический аспект// диссертация на соискание ученой степени доктора политических наук, 2019 г

[7] Asia-Pacific Center for Security Studies-APCSS Associate Professor Kerry Lynn Nankivell: Afghanistan at a Crossroads: Transnational Challenges and the New Afghan State// 6 January 2020

Иккинчи гуруҳга, Г.Э.Асатрян [1], К.Х.Рахимов, К.Чакмак, Л.Миазланд, М.Юнус, Ж.Инвод, М.Ахмед каби тадқиқотчиларнинг 2021 йил 15 август "Толибон" ҳаракати Афғонистонда ҳукуматни эгаллашидан кейинги даврда қилинган тадқиқотларини киритиш мумкин.

Бу даврга келиб "Толибон ҳаракатининг" АҚШ қуролларига эга бўлиши, минтақада кучлар мувозанатининг ўзгариши, ички сиёсий беқарорлик, терроризм хавфининг кучайиши бўйича фаол илмий мақолалар ёзила бошланди.

Хусусан, А.Жексоннинг таъкидлашича АҚШ Афғонистонда ўз стратегиясини ўзгартириб "Толибон" ҳаракати орқали минтақада ўз манфаатларини илгари суришни бошлаган[2].

Шунингдек, Б.Малкасиан ўз илмий мақолаларида АҚШнинг Афғонистондаги уруши стратегик муваффақиятсиз якунланиши домино эффектини бериб, халқаро майдонда хавфсизликка таҳдидларнинг кўпайишига сабаб бўлишини таъкидлаган.

Умуман олганда, Афғонистонда "Толибон" ҳаракатининг кескин ҳарбий сиёсатида экстремистик мафкуранинг мавжудлиги, Қуролли кучларга босим ўтказиш воситаси сифатида қарашлари таҳлил қилинганда, юқорида келтирилган муаммолар долзарб эканлиги ва турлича қарашларга сабаб бўлаётганлигини кўриш мумкин.

Тадқиқотнинг назарий ва методологик асослари. Тадқиқот жараёнида қуйидаги назариялардан асос сифатида фойдаланилди:

1. "Хавфсизлик комплекси" – Барри Бузаннинг хавфсизликка оид асосий манфаатлари бир бири билан шу даражада чамбарчас боғлиқ давлатлар гуруҳи бўлиб, уларнинг миллий хавфсизлиги бир-биридан айри ҳолда кўрилиши мумкин эмас;

2. "Хавфсизлик дилеммаси" – Жон Герз томонидан фанга киритилган. Роберт Жервес ва Барри Бузан асарларида тадқиқ қилинган. Бирон бир давлатнинг хавфсизлигини мустаҳкамлашга қаратилган фаолияти ўзга

---

[1] Асатрян Г.Э. Кланы «ТАЛИБАНА» и Афганистан.Т:2022 // Рахимов К. Х. Вклад государств-членов ШОС по урегулированию афганского кризиса: до и после вывода военного контингента НАТО. Т:2022// Чакмак К. Анализ политических процессов в Афганистане на современном этапе. Т:2022//Lindsay Maizland.The Taliban in Afghanistan T:2023// Yunus M. Taliban aim to boost Afghan security forces, anti-aircraft capacity -army chief. T:2023// Joe Inwood. Elite Afghan troops face return to Taliban after UK 'betrayal'. T:2023// MUNIR AHMED. US military equipment left behind in Afghanistan is now in militant hands. T:2023// MUNIR AHMED. US military equipment left behind in Afghanistan is now in militant hands. T:2023// A.Jackson:"U.S. Strategy in Afghanistan," p. 99. January 8, 2022// C. Malkasian:The American War in Afghanistan, p. 74–75 January 13, 2022.// C. Malkasian:The American War in Afghanistan, p. 74–75 January 13, 2022.// Топиров А.: Состояние и перспективы развития Вооруженных Сил Афганистана. Т: 2023 г. (мурожаат санаси: 04.01.2024 й)

давлатнинг хавфсизлик даражасини сусайишига сабаб бўлиши билан изоҳланади;

3. "Кучлар мувозанати"– Девид Юмнинг бир давлатнинг бошқа давлатлар устидан устунлик қила олишига имкон бермайдиган ҳарбий куч тақсимоти миллий хавфсизликни таъминлайди.

НАТИЖАЛАР

Мавжуд маълумотлар таҳлилига кўра, "Толибон" ҳарбий сиёсатининг минтақавий хавфсизликка таъсирини қуйидаги омилларда кўриш мумкин:

1. Куч тузилмаларининг халқаро террористик ташкилотлар билан интеграцияси: Ҳозирда Афғонистонда фаолият юритаётган Ал-Қоида, ТТП, Жамоати Ансоруллоҳ, Ўзбекистон Ислом Ҳаракати, каби террористик ташкилотлар сафларида жанг қилган, жанговар тажрибага орттирган турли қуроли гуруҳлар жангчилари Ярмук 60, Бадри 313, Қизил отряд каби махсус бўлинмаларга жалб этилган[1].

Мазкур гуруҳлар асосий хужумкор бўлинмалар бўлиб, коалиция кучларидан қўлга киритилган замонавий турдаги қурол-яроғлар, ўқ-дорилар, тунги кўриш мосламалари, сўнги авлод зирҳли нимчалар (НАТО), жанговар техникалар ва ҳатто енгил артиллерия қуроллари билан биринчи навбатда таъминланган[2].

Экспертлар фикрларига кўра, сўнги йилларда "Ярмук 60" ХТТ билан махфий иттифоқ тузиб, Афғонистон чегараларидан ташқарида Яқин Шарқ ва Жанубий Осиё бўйлаб минтақавий можароларда ҳам махсус операцияларини амалга оширмоқда.

Шу билан бирга, Шарқий Туркистон Ислом ҳаракати раҳбари билан Қуролли кучлар бош штаби бошлиғи билан Бадахшон вилояти, Баҳарак тумани, Қалатак уездида жойлашган "Толибон ҳаракати" ҳарбий базасида учрашувлар ташкил этилган[3].

Бундан ташқари, маршал Абдул Рашид Дўстумниг фикрича, "Толибон" Афғонистонни халқаро террорчиларни тайёрлаш ва қуроллантириш марказига айлантирган. Унинг фикрича, "Толибон" минтақа хавфсизлигига таҳдид солиш билан чегарадош давлатларга босим ўтказишга ҳаракат қилмоқда[4].

---

[1] UN Security Council, Thirteenth report: resolution 2611 (2022), S/2022/419, 26 May 2022, p.24// (мурожаат санаси: 06.03.2024 й)

[2] Bill Roggio. Taliban takes sontrol of Afghan provinsial capitals of Kunduz, Sar-i-Pul and Taloqan. 12 August 2021 y. p. 4 // https://www.longwarjournal.org/archives/2021/08/taliban// (мурожаат санаси: 10.03.2024 й)

[3] Ultrascan Research Center: Top secrets: Al Qaeda, ISIS and Taliban // ultrascan-research.com// (мурожаат санаси: 11.03.2024 й)

[4] Afghanistan International: طالبان افغانستان را به مرکز تجهیز تروریستان بین‌المللی تبدیل کرده است: عبدالرشید دوستم

۱۴۰۳/۰۱/۰۴ شنبه// https://www.afintl.com/202403236017// (мурожаат санаси: 11.03.2024 й)

Бундан ташқари, ИДВХнинг Афғонистондаги асосчиларидан бири ва дала қўмондони Абдулраҳим Муслим Дўст ўз жангчилари билан "Толибон" ҳаракатига баъйат бериб Нангархор вилоятида Қуролли кучлар таркибига киритилган[1].

2. Қуролли кучларда экстремистик мафкуранинг кучайиши:

"АИА" ҳарбий стратегияси ҚКни ривожлантиришда минтақада Ислом динини ва шариат қоидаларини ҳимоя қилувчи "Ислом армияси"

ғоясидан фаол фойдаланмоқда.

фатволар- Қуролли кучлар ҳарбий хизматчиларига "Ислом душманлари, "Толибон" мафкурасига қарши шахслар, "Толибон" сафларига қўшилмаган собиқ ҳарбийларга нисбант уриш қилишга фатво берилган.

Бундан ташқари, "Толибон" томонидан мамлакатнинг деярли барча 398 та туманида 7 ёшдан 14 ёшгача бўлган ўсмирларга ҳарбий-диний таълим берувчи жиҳод мактабларини ташкил этиш орқали захирадаги аскарларни тайёрлаш тизими яратилган. Бу мадрасаларда йилига бир неча юз минг ёшлар махсус тайёргарликдан ўтмоқда.

"Толибон" таълим вазири Нуруллоҳ Моунирнинг маълумотига кўра, Афғонистон эгаллаб олганидан бери 15 минг мадраса ташкил этилган.

Шунингдек, мамлакат бўйлаб мадрасаларда таҳсил олаётган талабалар сони 339 950 нафарни, уларнинг 244.330 (72 %) нафарини ўғил болалар ташкил этади[2].

Шу билан бирга, Шарқий Туркистон Ислом Ҳаракати (ШТИХ) раҳбари ва Ал-Қоида тармоғининг Афғонистон шимолидаги раҳбари Сирожиддин Ҳаққоний билан учрашувлар ўтказиб, шимолда жойлашган ҳарбийлар сонини кўпайтириш, ХТТларни кучайтириш мақсадида мамлакатнинг шимолий ва шимолий-шарқий вилоятларида қўшимча мактаблар ва жанговар тайёргарлик лагерлари ташкил этилган.

Ҳарбий диний мактабларда экстремистик ғоялар сингдирилган, махсус лагерларда, жанговар қуроллардан фойдаланиш бўйича тайёргарликдан ўтказилган жангчилар ҚК махсус бўлинмаларига, шунингдек, Ал-Қоида, Шарқий Туркистон,Жамоати Ансоруллоҳ, Ўзбекистон Исломий Ҳаракати сафларига ёлланмоқда[3].

3. Ташқи қўллаб-қувватлаш- ташқи кучларнинг минтақада ўз геосиёсий манфаатларини илгари суриш мақсадида "Толибон" ҳаракатига молиявий,

---

[1] Shabullah Yousafzai. ISKP founding member surrenders to Taliban govt in Afghanistan. The Express Tribune. March 04, 2022 y. p.3 // https://tribune.com.pk/story/2346378/iskpfounding// (мурожаат санаси: 13 .03.2024 й)
[2] https://www.youtube.com/watch?v=1fVYSLY8U8Y&t=259s// (мурожаат санаси: 15 .03.2024 й)
[3] Ultrascan Research Center: Top secrets:Al Qaeda, ISIS and Taliban //16.10.2024//ultrascan-research.com// p.16

қурол-яроғ, ҳарбий таълим ва жанговар таъминот йўналишларида зарур ёрдамлар кўрсатилмоқда. Бу орқали "Толибон"дан минтақага таъсир ўтказиш ва тийиб туришда восита сифатида фойдаланиш мақсад қилинган.

Шунингдек, Покистон билан мавжуд конфликтларга қарамай, Афғонистон қуролли кучларида мавжуд авиация, жанговар техника ва қуроллардан фойдаланиш, уларга техник хизмат кўрсатиш, шунингдек, махсус кучлар орқали "Толибон" ҳарбийлари жанговар тайёргарликдан ўтказмоқда.

Шу билан бирга, Покистон Идоралараро Разведка Хизмати собиқ директори Файз Хамиднинг тан олишича расмий Иломобод "Толибон"ни стратегик ва оператив қарорларни қабул қилишида, шунингдек зарур техник имкониятлар билан доимий таъминлаб келган[1].

Маълумотларга кўра, "Толибон" ҳаракати 2022 йил давомида мавжуд ҳарбий ресурсларни таъмирлаш ва улардан фойдаланишни ўзлаштириш мақсадида Саудия Арабистони ва Покистон билан етти маротаба учрашувлар ўтказган. Мазкур учрашувларда "Толибон" арсеналида мавжуд замонавий қуроллар ва ҳарбий техникалар мамлакатнинг шимолий қисмларига жойлаштириш бўйича масалалар кўриб чиқилган[2].

4. Агрессив ҳарбий стратегия- "Толибон" ҳаракатининг ХТТ жангариларини мамлакат шимолига кўчириши, шимолий вилоятларда замонавий қуроллар ва техникалар билан жиҳозланган махсус бўлинмалар ва ҳарбийлар сонининг кўпайтирилиши билан бир қаторда террористик ва экстремистик тактикалардан фойдаланиб ўтказаётган ҳарбий амалиётлари минтақавий хавфсизликка жиддий таҳдидларни юзага келтирмоқда.

Хусусан, 2022 йилда мамлакат ҳудудида фаолият юритаётган ХТТ рахбарлари билан учрашган Сирожиддин Ҳаққоний шимолий вилоятларда жангарилар сонини кўпайтириш ва уларни Кобул, Бағлон, Қундуз, Бадахшон вилоятларига жойлаштириш бўйича ишларни тезлаштиришни буюрган[3].

Шунингдек, 2022 йилнинг февраль ойда "Толибон" расмийлари Тожикистон чегарасига замонавий НАТО қуроллари билан жиҳозланган 10 000 ҳарбийларни жойлаштирди ва яқин орада бу бўлинмаларни жанговар самолётлар билан қўллаб-қувватланиш учун алоҳида режалар мавжуд[4].

---

[1] Haroun Rahimi, Andrew H. Watkins. Taliban Rule at 2.5 Years. Combating Terrorism at West Point. February 2023 y. p.3-9 // https://ctc.westpoint.edu/taliban-rule-at-2-5-years/annotation// (мурожаат санаси: 17.03.2024 й)

[2] The Defense Intelligence Agency (DIA-US): Report to SIGAR data March 2022 y. p.4-7// https://www.sigar.mil/pdf// (мурожаат санаси: 17.03.2024 й)

[3] Ultrascan Research Center: Haqqani network, Al-Qaeda, ISIS, Jamaat Ansarullah, Tehreek-e-Islami Uzbekistan, and East Turkestan movement // 16 October 2022 y. p. 5-9 // https://ultrascan-research.com// (мурожаат санаси: 17.03.2024 й)

[4] Security and Governance Key Issues and Events SIGAR REPORT April 2022 y. p.12-17.// (мурожаат санаси: 19.03.2024 й)

Бундан ташқари, Афғонистон Мудофаа вазирлиги томонидан 2022 йил 14 февраль куни Тожикистон, Хитой ва Покистон билан чегарадош Бадахшон вилоятида 3000 нафаргача аскардан иборат янги бўлинма ҚК штаб бошлиғи Қори Фасиҳуддин Фитрат бошчилигида расман очилганини эълон қилинди.

Шу билан бирга, МВ томонидан Туркманистон билан чегарадош Бодғис вилоятининг Абкамари, Жаванд, Тағоб Алам туманларида Ал-Фарук корпуси таркибида тўртта, Эрон билан чегарадош Фараҳ шаҳрида янги бўлинма ташкил этилганлиги маълум қилинди.

Бундан ташқари, собиқ ХТТ аъзоларидан ташкил этилган "Қизил бўлинма" (Red Unit) махсус бўлинмаси ҳам Бадахшон ва Тохар вилоятларига жойлаштирилган[1].

Ҳозирги вақтда шимолий-шарқий ҳудудларда жойлашган ушбу бўлинмалар ҳарбийлари Тохар ва Бадахшон вилоятларининг тоғли ҳудудларида ташкил этилган махсус лагерларда жиҳод ғоялари остида жанговар тайёргарликдан ўтказилмоқда.[2] Мазкур дивизияга 2024 йил январь ойида қўшимча 350 нафар ҳарбийлар жойлаштирилган[3].

Шу билан бирга, "Толибон" ҳарбий стратегиясида партизанлик урушларини олиб бориш, пистирмалар қўйиш, террористик ҳужумларини уйиштириш, чегара линиясида душман мудофаасини заифлаштириш, мураккаб рельефга эга тоғли ҳудудларда жанг олиб бориш, тинч аҳоли орасида терактлар уйиштириб тартибсизликларни келтириб чиқариш каби гибрид тактика ва тажрибанинг мавжудлиги минтақа давлатлари ҳарбий хавфсизлигига жиддий таҳдидларни келтириб чиқариши мумкин.

МУХОКАМА

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб минтақа хавфсизлигига қуйидаги муаммоларни келтииш мумкин:

1. Афғонистонда ҳукумат сифатида мамлакатда барқарорликни таъминлаш ва минтақада сиёсий позицияларини мустаҳкамлаш мақсадида "АИА" Қуролли кучларини ташкил этиш ва ҳарбий қудратни мунтазам ошириб боришни ўз стратегиясининг устувор йўналиши сифатида белгиламоқда.

---

[1]European Union Agency for asylum (EUAA): Afghanistan-Security situation report August 2022 у. p.2-19. (мурожаат санаси: 24.03.2024 й)

[2]Afghan voise agency: Soldiers in Badakhshan Received Military Training. January 2024 у //
(мурожаат санаси: 24.03.2024 й)

[3] Haji Zada Karimi. 350 Soldiers Received Military Training in Badakhshan. The BakhtarNews.
//www.bakhtarnews.af// 4 January 2024 у. — Lt. Haji Zada Karimi, chief of the Omar Salis Division, stated that 350 soldiers acquired military skills such as the use of various weapons// (мурожаат санаси: 24.03.2024 й)

Мазкур тенденция "Толибон" расмийлари томонидан эълон қилинган ҚК сонини 500 минг нафарга етказиш бўйича баёнотларининг амалдаги натижаларини кўрсатмоқда.

Минтақада ўз позициясини мустаҳкамлаш мақсадида давлат маблағларининг асосий қисмини мудофаа ва хавфсизлик соҳасига ажратилиши мамлакатда мавжуд иқтисодий-ижтимоий инқирозни кучайтириб, ички беқарорликни сақланиб қолишига сабаб бўлмоқда.

2. Афғонистон Қуролли кучларнинг замонавий структурасида собиқ Республика ҚК ташкилий тузилмаси асосида, хорижий контингентдан қолган ҳарбий инфратузилмадан фаол фойдаланган.

Мазкур бўлинмаларнинг НАТО кучларидан қўлга киритилган замонавий қуроллар билан таъминланганлиги ва Тожикистон билан чегарадош Бадахшон, Тахор каби вилоятларга жойлаштирилиши "Толибон" ҳарбий стратегиясида муҳим йўналишларни кўрсатиб бермоқда.

3. Афғонистонда "ташлаб кетилган" қуроллар ва "Толибон" ҳаракатини "гуманитар" мақсадларда молиялаштириши сабаб мамлакатнинг реал ҳарбий салоҳияти халқаро майдонда мақсадли равишда нохолис баҳоланмоқда.

Шунингдек, АҚШ, Ғарб ва Араб давлатлари, Покистон каби молиялаштирувчи кучли ҳарбий саноатга эга давлатлар мавжудлиги, мамлакатдаги ўзлаштирилмаган стратегик ресурсларга киритилаётган инвестициялар ва нефть қазиб олишнинг ортиб бораётганлиги каби ҳарбий бюджетни оширишга имкон берувчи омиллар таҳлил марказлари томонидан инобатга олинмаган.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида, Афғонистонда "Толибон"нинг ҳарбий сиёсати хусусан, куч тузилмаларида экстремистик мафкуранинг ҳукумронлиги, террористик ташкилотлар билан интеграцияси ҳамда ташқи кучларнинг қўллаб-қувватлаши минтақа хавфсизлигида жиддий хавотирларни уйғотмоқда.

Шунингдек, мамлакатда ички барқарорликни таъминлаш ниқоби остида минтақада ўз таъсирини кучайтириш мақсадида ҳарбий қудратини оширишга ҳаракат қилмоқда. ҚК салоҳиятини оширишда "Ислом армияси" ғояси асосида дин душманларига қарши ягона "платформа" сифатида ХТТ жангарилари куч тузилмаларига фаол жалб қилинмоқда.

"Толибон" ҳаракатининг мазкур сиёсати ташқи кучлар томонидан молиявий ва сиёсий қўллаб-қувватлашлари минтақада беқарорликни келтириб чиқарувчи асосий омиллардан бири бўлиб қолмоқда.

Экспертларнинг фикрига асосан, "Толибон" ҳаракати минтақа давлатларига қарши сиёсий мақсадларда босим ўтказиш учун мамлакат ҳудудида

ХТТларга бошпана бериб, жанговар тайёргарлик лагерларида ўз салоҳиятини кучайтиришга ёрдам бермоқда. Толибоннинг ҳарбий сиёсати, унинг потенциал имкониятлари билан боғлиқ жорий тенденциялар нафақат минтақада, балки бутун дунёда хавфсизлик ва барқарорлик учун жиддий оқибатларга олиб келиши мумкин.

Минтақада кучлар мувозанатини бузиб, сиёсий мақсадларда фойдаланиш мумкин бўлган "Толибон" ҳарбий стратегияси ва потенциал имкониятлари чегарадош давлатларидан мунтазам таҳлил ва хавфсизлик билан боғлиқ стратегияларини эҳтимолий таҳдидларга қарши мослаштириб боришни талаб қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

Монография ва рисолалар
1. Бобокулов И.И. Региональная безопасность Центральной Азии: вопросы теории и практики.-Т.: 2018;
2. Бобокулов И.И. Афғонистон Луғат-Маълумотнома.-Т.:2021;
3. Каплан Р. Месть географии. Что могут рассказать географические карты о грядущих конфликтах и битве против неизбежного.-Т.: 2012;
4. The withdrawal of military forces from Afghanistan and its   implications for peace.-T.: 2021;
5. Giustozzi A. and Al Aqeedi R. Security and Governance in the Taliban's Emirate.-T.: 2021;
6. US, SIGAR, Quarterly Reports to the United States Congress.-T.: 2024;
7. The European Union Agency for Asylum (EUAA). Country guidance: Afghanistan.-T.:2022;
8. Congressional Research Service of US. Taliban Government in Afghanistan: Background and Issues for Congress. R46955.-T.:2022;
9. SIGAR. WHY The Afghan Security Forces Collapsed- SIGAR 23-16-IP.-T.:2023;
10. The International Institute for Strategic Studies (IISS): The Military   Balance.-T.:2023;
11. Conflict Armament Research Center. Illicit weapons in Afg.-   T.:2023;

IV. Илмий мақолалар
1. Jimenez R. No Forgiveness for People Like You, Executions and Enforced Disappearances in Afghanistan under the Taliban. Human Rights Watch-HRW// https://www.ecoi.net/en/file/local/2064577

2. Khan.S.K. Taliban Army. Anadolu Agency// 07.11.2021. p.2// https://www.aa.com.tr/en/asia-pacific/interim-taliban-government-rebrands

3. Князев А.А. Проблемы региональной безопасности: Афганская политика Узбекистана: сравнительный контекст. Т.6. № 3 (2023);

4. Топиров А.Н. Состояние и перспективы развития Вооруженных Сил Афганистана. Зарубежное военное обозрение.p.2-6.Т.2023;

5. Joseph Trevithick Afghan Air.p2-4. T.2023;

6. Sajjan Gohel. The Taliban's Plan to Rebuild and Legitimize al-Qaeda.p.1-12.T.2023   //https://www.geopoliticalmonitor.com/the-talibans-plan-to-rebuild-and-legitimize-al-qaeda;

7. Зарубежное Военное Обозрение. «ТАЛИБАН» начал строительство своих Вооруженных Сил № 01 22 Января 2022;

8. By Farshad Daryosh. د امریکا لەخوا د هېواد د هوايي حريم پر "نقض "د لوی درستیز نیوکه // p.2-6.T.2023;

9. Asfandyar Mir. Two Years Under the Taliban: Is Afghanistan a Terrorist Safe Haven Once Again? The Taliban have enabled some terrorist groups and reined in others, elevating longstanding concerns for U.S. policy.p.1-

10. Konrad Adenauer F. The Taliban's Takeover in Afghanistan – Effects on Global Terrorism.p.2-7.T. 2022;

11. Bill Roggio. Taliban touts more elite 'Red Unit' fighter training on social media. p.4.T.2023. Long War Journal. https://www.longwarjournal.org

Журналлар

Хорижий нашрётлар:

1. "The Military Balance" журнали;
2. "Defense & Security Analysis" журнали;
3. "International Security" журнали;
4. "Journal of Strategic Studies"журнали;
5. "China Quarterly of International Strategic Studies"журнали;
6. "Journal of Peace Research"журнали;
7. "Национальная оборона" журнал;
8. "Армия и оружие" журнал;
9. "Центральная Азия и Кавказ" журнали;
10. "Вестник аналитики" журнал;
11. "Военное обозрение" журнал;

Интернет манбалари

1. http://www.nytimes.com
2. http://www.worldometers.info
3. https://www.washingtonpost.com
4. https://www.whitehouse.gov
5. https://www.longwarjournal.org
6. http://www.aljazeera.com
7. https://www.wsj.com
8. http://tolonews.com
9. https://www.crisisgroup.org
10. https://www.gzeopoliticalmonitor.com
11. https://www.iiss.org/even
12. https://www.greydynamics.com
13. https://www.usip.org
14. https://www.arabnews.com
15. https://president.uz
16. https://www.afintl.com
17. https://www.ariananews.af
18. http://www.afghanembassy.com
19. https://www.bakhtarnews.af/en
20. http://afghanistan.ru
21. http://www.afghanistan-analysts.org
22. http://apfghanistanpeacewatch.com
23. http://undocs.org
24. http://www.afghanistans.com
25. http://www.securityinfonet.com
26. http://www.cia.gov
27. http://www.bbc.com
28. http://afghanistanelectiondata.org
29. http://www.afghan-bios.info
30. http://www.isap.center

PTV VISSIM DASTURI ORQALI TARTIBGA SOLINGAN CHORRAHALARNI BAHOLASH

Jumayev Shaxzod Shavkat o'g'li
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
shaxzodj886@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda shaharlarda dolzarb muammoga aylanib borayotgan tartibga solingan chorrahalarning joriy holatiga PTV Vissim dasturiy kompleksi yordamida baholash ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: chorraha, PTV Vissim dasturi, chorrahaning xizmat ko'rsatish darajasi, transport oqimi.

EVALUATION OF INTERSECTIONS PLACED THROUGH THE PTV VISSIM PROGRAM

ABSTRACT

This article presents an assessment of the current state of regulated intersections, which is currently becoming an urgent problem in cities, using the PTV Vissim software complex.

Keywords: intersection, PTV Vissim program, level of service of the intersection, traffic flow.

KIRISH

Respublikamizda aholi soniga nisbatan transport vositalari soni juda sur'atlar bilan o'sib bormoqda, shu bilan birga transport xizmatiga bo'lgan talab yanada ortib bormoqda. Bir qancha shaharlar chorrahalarida qo'shimcha transport yuklanishi tirbandlik muammosini ortishiga olib kelmoqda.

Oxirgi yillarda respublikamizning ko'plab shaharlari chorrahalarida, avtotransport vositalari tirbandligini kamaytirish uchun tartibga solingan chorrahaning geometrik shakli bir necha bor o'zgartirilganligini ko'p guvohi bo'lganmiz. Masalan, Toshkent shahridagi Kichik halqa yo'li-Qatortol, Lutfiy-Farxod ko'chalari kesishmalari va boshqa ko'plab yo'l kesishmalarini keltirish mumkin. Shunga

o'xshash o'zgartirishlar shahar ko'chalari infratuzilmasi uchun qo'shimcha qurilish xarajatlarini talab etishi bilan birga yo'l kesishmasining samaradorligiga ta'sir qiladi.

Masalaning qo'yilishi va tadqiqot usuli. Ushbu ko'chalar kesishmasining samaradorlik ko'rsatkichlarini kompyuter dasturlari orqali hisob-kitob ishlarini amalga oshirishimiz va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishimizda PTV Vissim dasturiy kompleksidan foydalanishimiz mumkin. PTV vissim dasturiy kompleksi orqali avtomobil, avtobus, velosiped va piyoda harakatini samarali boshqarishda muqobil variantlarni simulyatsiya qilish orqali sinab ko'rish va eng yaxshi loyihalarni ishlab chiqishimiz mumkin bo'ladi.

Tadqiqot ishida Shota Rustaveli-Cho'ponota-Usmon Nosir 2-tor kesishmasini PTV vissim dasturiy kompleksi yordamida modellashtirib, uning joriy holati baholanadi.

Toshkent shahrida 700 mingdan ortiq avtotransport vositalari ro'yxatga olingan bo'lib, shahar hududiga bir sutka davomida o'rtacha bir nechta yuz minglab avtotransport vositalarini kirib-chiqishi qayd etilgan. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'rganilgan Shota Rustaveli-Cho'ponota-Usmon Nosir 2-tor kesishmasida kunlik o'rtacha 120 mingdan ortiq avtomobillar harakatlanishi kuzatiladi. Chorrahani Shota Rustaveli yo'nalishi 5 tasmali, Usmon Nosir 2-tor yo'nalishi 3 tasmali, Cho'ponota yo'nalishi esa 2 tasmani tashkil etadi. Shahar ichki asosiy yo'llarida transport vositalarning maksimal harakatlanish tezligi 60 km/soat belgilangan.

Toshkent shahridagi Shota Rustaveli-Cho'ponota-Usmon Nosir 2-tor ko'chalarining kesishmasini Yandex xaritadan olingan ko'rinishini 1-rasmda keltirilgan.

1-rasm. O'rganilgan chorrahaning Yandex xaritasidan ko'rinishi

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Chorraha yoki yo'l kesishishni samaradorligi tahlil qilish uchun ma'lumotlarni to'plashdan boshlandi. Ushbu ma'lumotlar avtotransport vositalar soni, turi, velosipedchilar va piyodalar oqimlarini o'z ichiga oladi. Kesishmada mavjud ko'chalarning geometrik parametrlari, yo'l belgilari, tirbandlik uzunligi, shuningdek yo'l transport hodisalar soni (to'qnashuvlar) ma'lumotlari tahlil etildi. Tanlangan kesishmada to'qnashuvlar bo'yicha ma'lumotlar mavjud emasligi hisobiga harakat xavfsizligi tadqiqot ishida inobatga olinmagan.

Kunlik bir soat intervalda har bir yo'nalishdan chorrahadan o'tadigan turli yo'nalishlarda harakatlanadigan avtotransport vositalari soni 1-jadvalda keltirilgan, shu jumladan harakatlanuvchi transport vositalar tarkibi (2-rasm): yengil, yuk avtomobillar hamda avtobuslar soni o'rganildi. O'lchovlar natijasida avtotransport harakati shuningdek transport oqimlarini yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar analitik sanash orqali amalga oshirildi hamda kunning tig'iz paytidagi bir soatlik qiymatlarda PTV vissim dasturga yuklandi va hisob ishlari bajarildi.

2-rasm. Tashkil etuvchi transport vositalarning ulushi

1-jadval. Chorrahadagi avtotransport vositalarini sutka soat oralig'ida o'zgarishi.

Sutka soat intervali		A kirish	B kirish	C kirish	D kirish
03:00:00	04:00:00	301	108	368	100
04:00:00	05:00:00	309	117	275	112
05:00:00	06:00:00	498	223	276	172
06:00:00	07:00:00	840	464	436	230

07:00:00	**08:00:00**	2689	1240	997	661
08:00:00	**09:00:00**	4028	1537	2146	878
09:00:00	**10:00:00**	3571	1446	2505	956
10:00:00	**11:00:00**	3119	1314	2365	946
11:00:00	**12:00:00**	3041	1257	2306	924
12:00:00	**13:00:00**	3088	1167	2404	883
13:00:00	**14:00:00**	3014	1240	2419	945
14:00:00	**15:00:00**	3048	1236	2286	893
15:00:00	**16:00:00**	2992	1261	2403	946
16:00:00	**17:00:00**	2995	1222	2490	956
17:00:00	**18:00:00**	3129	1211	2640	999
18:00:00	**19:00:00**	3283	1342	2796	985
19:00:00	**20:00:00**	2859	1384	2902	984
20:00:00	**21:00:00**	2312	1152	2516	955
21:00:00	**22:00:00**	2091	1027	2250	908
22:00:00	**23:00:00**	1853	954	1994	878

Chorrahadan oʻtadigan transport vositalarining soni chorrahaning oʻtkazish qobiliyatiga bogʻliq boʻladi. Tartibga solingan svetoforli chorrahalar uchun samaradorlikni avtotransport vositalarni boshqarishning oʻrtacha kechikishiga (ushlanib qolishi) qarab belgilanadi.

Tartibga solingan va solinmagan chorrahalarni baholashda ularning samaradorligi xizmat koʻrsatish darajasi (**LOS**) 2-jadvalda keltirilgan [1].

2-jadval. Chorrahaning **LOS** qiymati

LOS	Tartibga solingan	Tartibga solinmagan
	(sekunt)	
A	≤ 10	≤ 10
B	> 10 – 20	> 10 – 15
C	> 20 – 35	> 15 – 25
D	> 35 – 55	> 25 – 35
E	> 55 – 80	> 35 – 50
F	> 80	> 50

Chorrahaning joriy holatini PTV vissim dasturi orqali kompyuter modeli yaratildi (3-rasm).

3-rasm Shota Rustaveli-Cho'ponota-Usmon Nosir 2-tor ko chalari keshimasini modeli

Tartibga solingan chorrahaning joriy holati PTV vissim dasturiy kompleks yordamida hisob ishlari amalga oshirildi. Sonli natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Chorrahaning joriy holat natijalari

№	Ko'rsatkichlar	Joriy holati
1	Xizmat ko'rsatish darajasi (LOS)	D
2	Transport ushlanib qolishi (sek)	46.81
3	Tirbandlikning maksimal uzunligi (m)	400.15
4	Tirbandlikning o'rtacha uzunligi (m)	139.3
5	Transport vositalari soni	6086
6	O'rtacha to'xtashlar soni	1.67
7	CO (gramm)	11095
8	NOx (gramm)	2158.7
9	VOC (gramm)	2571.4
10	Yoqilg'i sarfi (litr)	158.729

XULOSA

Shahar koʻchalari va chorrahalarni PTV Vissim dasturida modellashtirish orqali uning qator xususiyatlarini xususan, chorrahada maʼlum vaqtda qancha transport harakatlanishini, transportdan chiqayotgan zararli gazlar miqdorini, hosil boʻlgan navbatning maksimal, oʻrtacha uzunligini va eng asosiysi uning xizmat koʻrsatish darajasini (LOS) samaradorligini baholash imkoniyati mavjud. Shota Rustaveli-Choʻponota-Usmon Nosir 2-tor koʻchalari keshimasi misolida tadqiq etilgan chorrahaning xizmat koʻrsatish darajasi D darajada ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Level_of_service_(transportation)
2. PTV Vissim 2023 Manual
3. Highway capacity manual (HCM 2000), Transportation Research Board, 1993, ISSN: 0738-6826
4. Ivana Nedevska and others, Methodology for analysing capacity and level of service for signalized intersections, MATEC Web of Conferences, 2016

INTERNET INFLUENCE ON WORLDVIEW OF YOUTH

Ugiljan Batirovna Khudaiberganova

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor,

Urgench State University

E-mail: hugilzon@gmail.ru

Oygul Sabirbayevna Ismailova

Psychology by types of activity teacher

Ranch of Urgench State Technological University

E-mail: ismailovaoygul@gmail.com

ABSTRACT. The aim of this article is to view the Internet influence on worldview of modern youth and to determinate its place in the process of communication. The Internet is an increasingly important part of everyday life for people around the world. But if you've never used the Internet before, all of this new information might feel a bit confusing at first. Throughout this tutorial, we'll try to answer some basic questions you may have about the Internet and how it's used. When you're done, you'll have a good understanding of how the Internet works, how to connect to the Internet, and how to browse theWeb.

Keywords: vale ology; influence of the Internet; communication; socialization; modern youth; worldview; advantages and disadvantages of the Internet.

INTRODUCTION.

The Internet is quite a strong effect on everyone, especially teenagers. Modern schoolchildren believe that they can no longer study without the Internet. To study this issue, a sociological survey was conducted among students of several classes of our gymnasium.

We learned what the Internet is quite a long time ago. Yes, of course, the Internet is the greatest and most amazing invention of the last century, with the help of which humanity made a huge leap into the future, gave an incentive to progress. The Internet simplifies our lives, opens up more and more opportunities for us. It is also a great help in your studies and work. Now you can get any information you need on a given topic at a moment's notice, and get in touch with anyone in the world in a matter of seconds.

The Internet is a great discovery that gives us great opportunities. But as I became more familiar with the Internet, I realized that not everything that seems good is good. I think many people will agree with me thatthereis a lot of information on the Internet that cannot be read or even seen, especially by the younger generation! Children stop reading books, the circle of communication of teenagers is reduced: they are limited to virtual communication in chat rooms and forums, young people are rapidly growing aggressiveness, which is caused by excessive and sometimes painful passion for computer games. All this leads to a gradual degradation of the individual.

What is the Internet? "The Internet is a global computer network that provides huge freedoms to users" - one of the official formulations. The Internet is a computer network also known as the "world wide web". You no longer need to go to the cinema, to a concert of your favorite band, to linger in the library, to bother shopping, you can get all the information you need without leaving the screen of Your monitor.

For many teenagers, the Internet is a means of entertainment, and only then a source of knowledge and an assistant in their studies. Very few teenagers use computers and the Internet for educational purposes. By participating in virtual communities, children can easily communicate, find new acquaintances, and exchange information.

METHODS AND MATERIALS.

The Internet is an ambiguous phenomenon, and just as ambiguous is its impact on teenagers. It is bad because it has no boundaries! That is, it does not protect teenagers from profanity that children do not need to know at all. Along with useful information and positive communication, there are clubs of drug addicts, suicides, terrorists, a sea of pornography, which is a huge danger for teenagers who have not yet formed moral values, and the craving for" adult " entertainment is great. In the absence of proper control on the part of adults, young people in the social network become the object of negative information and psychological influence, manipulation. It is not uncommon for young people to be used as a tool of informational confrontation, to be involved in mass protest actions. A particular danger for children is the possibility of involving them through social networks in extremist groups, destructive religious organizations, whose activities are aimed at committing anti-social, illegal, including criminally punishableacts.

The influence of the Internet on young people is one of the factors that shape the psychological development of young people and their perception of the world as a whole. In the modern world, a person can no longer imagine life without a phone, laptop, tablet and, of course, the Internet. The progress of technology has covered a large part of our living space. We ourselves sometimes do not notice how much timewe spend on the Internet, setting an example to our curious generations. Number of users

The Internet is growing rapidly, and the proportion of people under the age of 18 and older among users of the world wide web is very large. For many people, especially young people, the Internet is becoming an information and educational environment, without which they cannot imagine life.

However, a large percentage of information that is freely accessibleм, котороeleads to the denial of worldviews based on certain moral or ethical norms. In this regard, the problem of ensuring security in cyberspace is particularly relevant in modernsocietyFirst of all, Internet addiction manifests itself in the fact that people, spending a lot of time on the Internet, forget about their responsibilities and real problems. Unlimited use of computers and the Internet is especially dangerous for children and young people . a Large amount of time spent at a computer monitor leads to excessive visual stress and, as a result, to the development of myopia. There are also problems with digestion, headaches, and impaired concentration of attention. Speaking of the latter, we can note the fact that almost any Internet resource is organized on the principle of " read this and see what else is available." Mostly sites show bright graphic ads that make you draw the attention of any person, even with an iron mind. As a result, attention becomes more distracted than it was before. Another of the most dangerous consequences is the limited emotional contact and communication with family and friends in real life, which leads to a number of psychological problems. Of course, the Internet also has a positive meaning. For example, it promotes both educational and intellectual development: there are a variety of sites for parents that contain valuable material for raising and teaching children (online educational online games, interactive textbooks, drawing lessons, English,etc.)

